Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLALARDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Axunov Muhammadamin Abduvasitovich
Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Phone: +998972736877

Annotatsiya: Maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda mahallalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar qilib shakllanishlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga maqolada ahamiyatga molik mulohazalar va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, axborot asri, internet, mahalla, raqamli iqtisodiyot, korporativ veb-sayt, telegram bot, mobil ilova.

Yangi O‘zbekistonimizning barqaror va samarali iqtisodiyotini shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini namoyon etmoqda. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ta’lim sifatini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan inqilobiy islohotlar jarayonlarida yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash uchun ularning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini oshirish kunning dolzarb vazifalaridan bo‘lib bormoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining barcha sohalari zamirida axborot kommunikatsiya texnologiyalari yotadi. Bugungi kunda qaysi bir sohani olmaylik uning rivojining zamirida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yotadi. Mahallalar, oilalar yoshlar tarbiyasining o‘chog‘i hisoblanadi. Yoshlar, asosan, shu joylarda toblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida “Biz o‘z oldimizga O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, ... islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” deb ko‘rsatilib o‘tilgan [1-23 b.]. Ayniqsa, yangi kelajak avlod va uning qobiliyatlarini bunyodkorlik ruhida shakllantirish hamda rivojlantirishning imkoniyatlari va amaliyoti bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Published: 24.05.2025

Cite this article: Axunov Muhammadamin Abduvasitovich (2025). Yangi O‘zbekistonda mahallalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘rni. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/312

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarning dunyoqarashlarining shakllanishida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati oshib bormoqda.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlanishi "axborot asri" deb nomlana boshlandi, chunki XXI asrda axborotning roli doimiy ravishda oshib bordi va jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyat kasb eta boshladi. Bunday jamiyatda ta’lim, bilim, axborot va muloqot insonning rivojlanishi va farovonligining asosini tashkil qiladi. Ayniqsa, aholi yashayotgan mahallalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega bo‘lib, mahallalar axborot tizimlari – axborotlarni saqlash, qayta ishlash hamda uzatish metodlari yig‘indisi yaratildi. “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikkasining qonunining 12-modddasida quyidagilar belgilangan:

- Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari: huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda ishtirok etadi;

- aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etadi;

-Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda qonun xujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham ishtirok etishi mumkin. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar huquqiy axborotni tarqatish hamda undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin [2]. Yoshlarning axborot kompetensiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: Ma’lumot manbalarini to‘g‘ri tanlash qobiliyati;

Turli manbalardan ma’lumotlarni topish va o‘zgartirish qobiliyati;

-Texnik vositalardan foydalanish bo‘yicha aniq ko‘nikmalarga ega bo‘lish qobiliyati;

O‘z faoliyatida kompyuter axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati yoshlarni AKT ta’sirlaridan asrash borasida qilinadigan ishlar quyidagilardan iborat: - Aloqa fositalaridan foydalanish hamda yoshlar ongiga salbiy tomonlarni ta’sirini kamaytirish choralari: - AKTdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va ulardan o‘z qobiliyatlarini shakllantirishda maqsadli ish yuritish; - kommunikatsiya vositalari va kompyuter o‘yinlaridan mutaxassilar yordamida o‘rganib, samarali foydalanish: - internet kafelar, ularning ijobiy va salbiy oqibatlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish. Ayniqsa, nazoratsiz qolgan internet-kafelardan foydalanuvchilar o‘zlari xohlagan ishlarni qilishi mumkin. Ular tafakkurimizga yot bo‘lgan axborotlardan foydalanishi, xilma-xil odobsizlik va vahshiylikka yo‘naltirilgan , eng yomoni ularning

ruhiyatiga ta’sir qiluvchi o‘yinlarni o‘ynashi, tarbiyasini buzuvchi janrdagi musiqalarni tinglashi, fikrlarini salbiy harakatlarga jalb qiluvchi videofilmlarni tomosha qilishi mumkin. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari tizimining mohiyatini tushunish uchun hal qilayotgan muammolar mohiyatini tushunish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PF5938-sonli Farmonida “Fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish” belgilangan [3]. Mahallalarda bugungi kunlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. “Oila-mahalla-maktab” munosabatlariga asoslanib ish olib borayotgan va an’anaga aylanib borayotgan bu tizim samarali natijalarga olib kelmoqda. Yangi O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy, siyosiy madaniy-ma’rifiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta’minlash, ularni foydali mashg‘ulotlar bilan band qilish maqsadida hukumatimiz tamonidan ta’lim-tarbiyaga oid ko‘plab internet saytlari va axborot resurslari ishlab chiqilmokda hamda ommaviy foydalanishga yo‘naltirilishi ta’minlanmoqda. Shu bilan birga yoshlarni AKT ta’sirlarndan asrash borasida ham bir qator qilinadigan ishlar belgilanib olingan. Aloka vosntalarndan foydalanishda internet va mobil aloqa tizimlari — multimedia va axborot tarqatuvchi vositalardan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish bilan birga uning salbiy oqibatlarini tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Asosan AKTdan foydalanishning salbiy jixatlarini ikki turga ajratish mumkin: Birinchidan sixat-salomatlikka ta’sir etsa, ikinchidan yoshlar ma’naviy ongiga ta’sir qilishi mumkin. Jamiyatning quyidagi bug‘inlarida AKTning salbiy xolatlarini oldini olish buyicha tushunchalar berish lozim: - Yoshlar ongiga salbiy tomonlarini ta’sirini kamaytirish choralari: - Oilada – AKTdan foydalanish tartib qoidalarini tushuntirish va nazorat ishlarini tashkil etish; Mahallada - AKT soxasi buyicha ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etish, mavjud kompyuter xizmatlarini (internet kafe va boshka) nazorat qilish; O‘quv muassasasida tushintirish ishlarini olib borish; Foydalanilayotgan uyali aloqalar vositalarida saqlanayotgan ma’lumotlarni tekshiruvdan o‘tkazib turish. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kun barkamol avlod yoshlarning tarbiyalashda axborot-komunikatsiya texnologiyalarini o‘rganish yetakchi o‘rinni egallaydi. Ya’ni, bugungi kunning zamonaviy malakali mutaxassisi bo‘lishi uchun zamonaviy bilimdan orqada qolmasligimiz kerakligini kelajak avlod yoshlari ongiga singdirishimiz zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021 y. 82-bet.

2. “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”. Toshkent sh.,2017 yil 7 sentyabr,O‘RQ-443-son
3. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PF5938-sonli Farmoni”. Toshkent sh., 2020 yil 18 fevral, PF-5938-son
4. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Xashimova D.P., Parpiyeva R.A. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.
5. M.Axunov. Inson ehtiyojlari va yoshlarning ma’naviy tarbiyasi. “Ilmiy xabarnoma” jurnali, №4, Andijon, 2013 yil.

HEALTHY COMPETITION IN THE NATIONAL ECONOMY IS THE DRIVING FORCE OF PROGRESS

Razzaqov Muhammadqodir
Andijan State Technical Institute
4th year student majoring in Accounting and Auditing
The article was prepared under the guidance of
Ph.D. M-**A.H. Eshonov**

Abstract: For the development of a modern market economy in the country, competition had to be formed preservation of enterprises in the fields, for enterprises, their market conditions production of a mechanism of economic management that allows for adaptation occupies an important place. This mechanism that state enterprises are economically free and their activities are commercialized implies.[1] Since the main method of competition during the transition to a market economy is price, free pricing is a key requirement for creating a competitive environment.
Key words: competition, monopoly, economy, development, anti-monopoly, management, country.

The conditions for the formation of international economic relations in the context of global competition of countries in the world economic system are determined. The nature of global competition, which takes the form of cooperation and cooperation both among producers and between producers and consumers, is investigated. It has been established that in the global economy, industrial and post-industrial countries are displacing less developed countries from the world market, gaining control over value chains. It is concluded that in the global perspective, countries with transitive economies and developing countries are losing the opportunity